



YOSHLARDA AKSIOLOGIK QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH MODELI.

Andijon davlat pedagogika institute Maktabgacha ta'lim kafedrası p.f.d.(DSc),
professor v.b.

Tairova Madinabonu Baxtiyarovna

Turon universiteti 2-kurs magistranti

Abdulazizova Muhayyo.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada aksiologiya tushunchasi va yoshlarda aksiologik qadriyatlarni rivojlantirish modeli, qadriyatlar tizimining shaxs rivojida o'rnini hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyasi yoritilgan. Shuningdek, modelning kognitiv, emotsional-motivatsion va faoliyatli komponentlari asosida yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari ilmiy asosda ochib beriladi. insoniy qadriyatlar asosida yoshlarga ta'lim va tarbiya berish haqida so'z boradi.

ANNOTATION: This article discusses the concept of axiology and the model for developing axiological values in young people, the role of the value system in personal development, and its integration with modern educational technologies. Also, the mechanisms for the formation of spiritual and moral competencies of young people based on the cognitive, emotional-motivational and activity components of the model are scientifically revealed. It discusses the education and upbringing of young people based on human values.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается концепция аксиологии и модель развития аксиологических ценностей у молодежи, роль системы ценностей в личностном развитии и ее интеграция с современными образовательными технологиями. Также научно раскрываются механизмы формирования духовно-нравственных компетенций молодежи на основе познавательной, эмоционально-мотивационной и деятельностной составляющих модели. Обсуждается воспитание молодежи на основе гуманистических ценностей.

Kalit so'zlar: Aksiologiya, qadriyatlar tizimi, metodologik model, yoshlar tarbiyasi, kompetensiya, ma'naviy-axloqiy rivojlanish, pedagogik yondashuv, integrativ ta'lim, refleksiya, ijtimoiy faollik, innovatsion ta'lim texnologiyalari.



Keywords

Axiology, value system, methodological model, youth education, competence, spiritual and moral development, pedagogical approach, integrative education, reflection, social activism, innovative educational technologies.

Ключевые слова

Аксиология, система ценностей, методологическая модель, образование молодежи, компетентность, духовно-нравственное развитие, педагогический подход, интегративное образование, рефлексия, социальный активизм, инновационные образовательные технологии.

Aksiologiya (yun. “axio” - qadriyat va “logos” - fan, ta’limot) – qadriyatshunoslik, qadriyatlar haqidagi fan. XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan.

Aksiologik yondashuv insonparvarlik pedagogikasining uzviy o'ziga xosligi bo'lib, barcha odam unda jamoaviy rivojlanishning maqsadi va jamiyatning oliy qadriyati sifatida qaraladi. Shuning uchun aksiologiyaga (tabiiy qadriyatlar haqidagi (nazariy) falsafiy nazariyalar) yangi ta'lim falsafasi sifatida va zamonaviy pedagogika metodologiyasiga uyg'un tarzda qaraladi.

Zamonaviy jamiyat ta'limni o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalami egallashining maqsadga yo'naltirilgan jarayoni va natijasi sifatida tushunishdan uzoqlashdi. Ta'lim bu insonda insoniylikni tarkib toptirishdir. Uning asl mohiyati ham ana shunda. Pedagogik aksiologiyaning predmetini shaxsning aksiologik ongi, aksiologik munosabati, aksiologik xulq-atvorini shakllantirish tashkil etadi. Falsafadan farqli ravishda pedagogik aksiologiya «qadriyat» va ulami aksiologik ong, munosabat, xulq-atvor deb nom lash orqali «aksiologik» tushunchalarga alohida-alohida qaraydi. N.A.Astonovanning “Pedagogik aksiologiyaning kontseptual asoslari” maqolasida pedagogik aksiologiyaning predmeti sifatida shaxsning madaniy munosabatini rivojlantirish e'tirof etiladi. Maqolada qayd etilishicha, ana shu jihat bilan pedagogik aksiologiyaning funktsiyalari uning o'ziga xosliklarini belgilashga imkon beradi.

Aksiologik qadriyat - falsafaning aksiologiya (qadriyatlar haqidagi ta'limot) bo'limiga tegishli tushuncha bo'lib, voqelikdagi hodisalarning inson va jamiyat uchun ma'naviy, axloqiy va madaniy ahamiyatini anglatadi. U tinchlik, adolat, erkinlik, ma'rifat, yaxshilik va go'zallik kabi ijtimoiy mezonlarni o'z ichiga oladi

Pedagogik aksiologiya - ta'lim va tarbiya jarayonini insoniy qadriyatlar (ma'naviyat, axloq, bilim, madaniyat) asosida o'rganuvchi hamda ta'limga shaxsga yo'naltirilgan



aksiologik yondashuvni tatbiq etuvchi pedagogika fanining muhim sohasi. Aksiologiya (qadriyatlar falsafasi) - qadriyatlarning tabiati, ularning jamiyat va inson hayotidagi o'rnini o'rganuvchi falsafiy ta'limotdir.

Pedagogik aksiologik qadriyatlar - ta'lim va tarbiya jarayonining asosi bo'lib, pedagogik faoliyatning inson, jamiyat va davlat uchun ahamiyatini belgilovchi g'oyalar, mezonlar va qoidalar tizimidir. Ular "o'qituvchi - o'quvchi" munosabatlarini insonparvarlik asosiga qurishga xizmat qiladi.

"O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" va zamonaviy pedagogika metodologiyasiga ko'ra, pedagogik qadriyatlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Asosiy guruhlari:

- Insonparvarlik (gumaniylik) : Bola shaxsini oliy qadriyat deb bilish.
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlar: Ajdodlar merosi, milliy g'urur va umumbashariy madaniyat uyg'unligi.
- Kasbiy mahorat: O'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan sadoqati, adolatliligi va mas'uliyati.
- Ijodkorlik: Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va erkin fikrlash.

Pedagogik aksiologiyaning bosh maqsadi: Barkamol shaxsni shakllantirish, yoshlarda yuksak ma'naviyatni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kamol toptirish, intellektual salohiyatni oshirish

Aksiologiya nimalarni o'rganadi?

- Qadriyatlar tabiati. Nima uchun insoniyat muayyan narsalarni qimmatli deb bilishini o'rganadi.
- Axloqiy qadriyatlar. Ezgulik, adolat, burch va vijdon kabi tushunchalarni tahlil qiladi.
- Estetik qadriyatlar. Go'zallik va san'atning mohiyatini baholaydi.
- Ijtimoiy qadriyatlar. Din, siyosat, madaniyat va huquqning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi.

Ta'limda aksiologik metodologik model – bu o'qitish va tarbiya jarayonini shunchaki bilim berish emas, balki eng avvalo insoniy qadriyatlarni shakllantirish asosi deb hisoblaydigan yondashuvdir. Bu modelda o'quvchi yoki talaba faqat axborot qabul qiluvchi emas, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlar egasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotda va o'quvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala madaniyatida ham o'z ifodasini topadi. Bular esa kundalik hayotdagi so'zlashuv uslubimizda ko'proq uchraydi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya yo'llari



- **Raqamli storytelling (Hikoyachilik):** Multimedia (video, audio, animatsiya) orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'sirchan tarzda yetkazish.
- **Geymifikatsiya (O'yinlashtirish):** Ta'limiy o'yinlar ssenariysiga to'g'rilik, hamkorlik va adolat kabi qadriyatlarni singdirish.
- **Virtual va kengaytirilgan borliq:** Tarixiy obidalar, muzeylar va madaniy meros ob'ektlariga virtual sayohatlar orqali vatanparvarlikni shakllantirish.
- **Sun'iy intellekt va shaxsiylashtirish:** Har bir o'quvchining qiziqishlari va ma'naviy ehtiyojlariga moslashtirilgan individual ta'lim traektoriyasini yaratish.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalari — bu ularning jamiyatda to'g'ri qaror qabul qilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qolishi hamda raqamli dunyoda o'zligini yo'qotmasligi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ichki his-tuyg'ular majmuasidir.

Aksiologiya (qadriyatlar haqidagi ta'limot) nuqtai nazaridan yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalari — bu shunchaki qonun-qoidalar to'plami emas, balki shaxsning ichki qadriyatlari uning kundalik harakatlari va tanlovlarida qay darajada namoyon bo'lishidir.

Aksiologik yondashuvda asosiy e'tibor yoshlarning borliqdagi voqealarni qanday baholashi va nimani hayotda eng muhim deb hisoblashiga (ustuvorliklar iyerarxiyasiga) qaratiladi.

Sharq uyg'onish davri va mutafakkirlarining tarbiyaga doir asarlari:

- Abu Nasr Farobiy — "Fozil odamlar shahri"- Tarbiyaning maqsadi insonda baxtga erishish uchun xizmat qiladigan go'zal fazilatlarni shakllantirishdir. Mutafakkir ta'limni ma'lumot berish, tarbiyani esa axloqiy ko'nikmalarni odatga aylantirish deb ta'riflaydi.
- Abu Ali ibn Sino — "Tadbiri manzil" (Oila xonadoni) - Bola tarbiyasini u tug'ilgan kundan boshlash, uning tabiatiga mos usullarni tanlash va jismoniy hamda aqliy tarbiyani uyg'un olib borish lozim.
- Yusuf Xos Hojib — "Qutadg'u bilig" (Baxtga eltuvchi bilim) - Yoshlarga bilim, odob va til madaniyatini o'rgatish jamiyat rivojining poydevoridir. Asarda ota-onaning farzand oldidagi mas'uliyati qat'iy belgilangan.

Jadidchilik davri pedagogikasi (XX asr boshi)

- Abdulla Avloniy — "Turkiy guliston yoxud axloq" - "*Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir*". Avloniy tarbiyani to'rt qismga (badaniy, fikriy, axloqiy va hissiylikka) bo'lib,



yoshlarda vatanparvarlik va ilmgga muhabbatni shakllantirishni eng oliy burch deb bilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy — Maqolalar va "Padarkush" dramasi: - Dunyoviy va diniy ilmlarni mukammal egallash, yoshlarni zamon talablariga mos kadrlar qilib tarbiyalash hamda milliy o‘zlikni asrash.

Jahon pedagogikasi va zamonaviy adabiyotlar:

- Yan Amos Komenskiy — "Buyuk didaktika" - Tabiat bilan hamohang tarbiya tamoyili. Yoshlarga bilim berishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish va tarbiyada namuna ko‘rsatish usulining ustuvorligi.

- Shalva Amonashvili — "Insoniy pedagogika" - Bolaga nisbatan cheksiz muhabbat va hurmat. Tarbiya majburlash va qo‘rqitishga emas, balki bolaning ichki dunyosini tushunish va unga ma‘naviy ko‘mak berishga asoslanishi kerak.

Zamonaviy O‘zbekiston tadqiqotlari (Aksiologik va pedagogik manbalar)

O‘zbekiston Respublikasining "Ta‘lim to‘g‘risida"gi Qonuni va Kontseptsiyalar: - Uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar va kiber-makonda to‘g‘ri harakat qila oladigan barkamol shaxs etib tarbiyalashning huquqiy asoslari.

Integrativ ta‘lim — bu alohida fanlar va bilim sohalarini yagona bir tizimga birlashtirish orqali talaba yoki o‘quvchida dunyoning yaxlit (fragmentar bo‘lmagan) manzarasini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy ta‘lim modelidir.

Integrativ ta‘limning asosiy turlari:

Fanlararo integratsiya (Interdisciplinary): Ikki yoki undan ortiq fanning kesishuvida yangi mavzu yaratish (masalan, Tarix + Adabiyot = Davr madaniyati va ijtimoiy muhiti)

Fandaxshil (Intradisciplinary) integratsiya: Bir fanning ichidagi turli bo‘limlar va mavzularni bir-biri bilan bog‘lash.

Transdisiplinar integratsiya (Transdisciplinary): Bilimlarni fandan tashqariga olib chiqish, ya‘ni fan nazariyasini real hayotiy, global va amaliy muammolar bilan bog‘lash (masalan, Ekologiya + Iqtisodiyot = Barqaror rivojlanish loyihalari).

Integrativ ta‘lim texnologiyalari va modellari:

STEM / STEAM / STREAM: Fan (Science), Texnologiya (Technology), Muhandislik (Engineering), San‘at (Art), Matematika va O‘qish (Reading) fanlarini loyiha asosida birlashtirish.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning): O‘quvchilar aniq bir amaliy



muammoni hal qilish uchun turli fanlardan olgan bilimlarini safarbar etadilar.

Integrativ ta'limning yoshlar tarbiyasi va qadriyatlar tizimidagi o'rni

Yaxlit dunyoqarash: Yoshlar axloqiy, huquqiy va ijtimoiy qoidalarni bir-biridan ajratmay, yagona qadriyatlar tizimi sifatida qabul qiladi.

Tanqidiy va tizimli fikrlash: Muammolarga faqat bir tomonlama emas, balki iqtisodiy, ma'naviy, ekologik va texnologik jihatdan baho berishni o'rganadi.

Kompetensiyalarni amalda qo'llash: Nazariy ma'naviy-axloqiy bilimlar raqamli muhit va ijtimoiy faoliyat bilan integratsiya qilinib, real hayotiy ko'nikmaga (Soft skills) aylanadi.

Aksiologiyada refleksiya — bu insonning o'z qadriyatlari, axloqiy mezonlari va hayotiy maqsadlarini chuqur anglash, tahlil qilish hamda qayta baholash jarayonidir.

Aksiologik refleksiyaning asosiy funksiyalari:

- Qadriyatlarni anglash: Inson jamiyat tushunchalari va shaxsiy qarashlari orasidan o'zi uchun haqiqiy bo'lgan qadriyatlarni ajratib oladi.
- Axloqiy tanlovni asoslash: Qiyin vaziyatlarda qaysi qadriyat ustun ekanini aniqlashga va to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi.
- Tanqidiy baholash: Eskirgan, hayotga xalaqit beradigan yoki majburan singdirilgan qoliplarni va stereotiplarni qayta ko'rib chiqadi.
- Ma'naviy o'sish: Shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his qilishi va ichki dunyosini rivojlantirishini ta'minlaydi.

Xulosa

Yoshlarda aksiologik qadriyatlarni rivojlantirish modeli shunchaki nazariy konsepsiya emas, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligini ta'minlovchi strategik mexanizmdir. Ushbu tadqiqot asosida ishlab chiqilgan model yosh avlod ongida milliy qadriyatlarga sodiqlik va umuminsoniy tamoyillarni uyg'unlashtirish tizimini tahlil etadi. Modelning asosiy mohiyati yoshlarni passiv axborot qabul qiluvchidan, faol qadriyat yaratuvchi va uni himoya qiluvchi subyektga aylantirishdan iborat.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, aksiologik qadriyatlarni tizimli rivojlantirish modeli yoshlarning shaxsiy va kasbiy kamolotida muhim kompas vazifasini o'taydi. Mazkur modelning amaliyotga tatbiq etilishi mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy yetuk va milliy o'zligini anglagan zamonaviy shaxsni tarbiyalash samaradorligini tubdan oshirishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (Yangi tahriri). – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti, 1993.
4. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manzil (Oila xonadoni). – Toshkent.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Baxtga eltuvchi bilim). – Toshkent: “Yulduzcha”, 1990.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush dramasi va tanlangan maqolalar. – Toshkent.
8. Komenskiy Yan Amos. Buyuk didaktika (Izb. ped. soch. jildlari). – Moskva: “Pedagogika”, 1982.